

**«TASDIQLANDI»**  
«O'zbekgeofizika» AJ  
Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi  
tomonidan  
«29» iyun 2017 yil

**«O'ZBEKGEOFIZIKA» AKSIYADORLIK  
JAMIYATINING ICHKI NAZORATI  
TO'G'RISIDAGI NIZOMI**



2017 yil

## **I. UMUMIY QOIDALAR**

1.1. Mazkur Ichki nazorat to'g'risidagi Nizom amaldagi qonunchilik, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish Komissiyasi yig'ilishining 31 dekabr 2015 yilda 9-sonli bayonnomasi bilan (reg. ot 11.02.2016g. №02-02/1-187) tasdiqlangan korporativ boshqaruv kodeksi, «O'zbekgeofizika» AJning Ustavi va ichki hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan

1.2. Mazkur Nizom ichki nazorat tizimining maqsadlari va vazifalarini, uning faoliyat tamoyillarini, shuningdek ichki nazoratga mas'ul jamiyatning organlari va shaxslarini belgilaydi.

1.3. Ushbu Nizom Jamiyatning xodimlari, uning boshqaruvi va nazorat organlari a'zolari tomonidan bajarilishi majburiydir.

## **II. ICHKI NAZORAT TIZIMINING TA'RIFI VA MAQSADLARI**

2.1. Ichki nazorat – bu quyidagi sohalarda, Jamiyat maqsadlariga erishishga nisbatan asoslangan va yetarli tasdiqni olish maqsadida, Jamiyat faoliyatiga o'rnatilgan va xavf-xatarlarni boshqarish, nazorat va korporativ boshqaruv jarayonlari samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan uzluksiz jarayonidir:

- faoliyatning samaradorligi va unumdorligi, shu jumladan faoliyat samaradorligi darajasi, foyda olish va aktivlarni himoyalash;
- moliyaviy hisobotlarni ishonchliligi va to'g'riligi;
- qonunchilik va Jamiyat faoliyatini tartibga soluvchi huquq normalariga muvofiqligi.

2.2. Ichki nazorat tizimi – barcha funksiyalar uchun auditorlik komissiyasi, ichki audit xizmati, kuzatuv kengash va xodimlar (ichki nazorat sub'ektlari) tomonidan uyushtirilgan va o'tkaziladigan ichki hujjatlar bilan tartibga soluvchi ichki nazoratning ichki tartibini, nazorat qilish choralari, ichki tartibini va usullarini nazorat qiladi.

2.3. Ichki nazorat tadbirlari – bu ichki nazorat sub'ektlari tomonidan amalga oshiriladigan va moliyaviy – xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda jamiyatning qonun va ichki hujjatlarining buzilishlarini aniqlashga, Jamiyat oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish samaradorligini baxolashga, shuningdek ichki nazorat tartibining sub'ektlari ichki nazorat tartib-qoidalarini amalga oshirish jarayonida bir-birining o'zaro munosabatlariga yo'naltirilgan chora-tadbirlar majmui.

2.4. Ichki nazoratning asosiy maqsadi barcha aksiyadorlarning, shu jumladan minoritar aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta'minlash hisoblanadi.

2.5. Ichki nazorat operativ tartibda quyidagilarni ta'minlashga undaydi:

- aktivlarning xafvsizligi, jamiyat resurslaridan tejamkor va samarali foydalanish;

- amaldagi qonunchilik va Jamiyat ichki hujjatlari talablariga rioya qilish;
- Jamiyatning o'rt va uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini, Jamiyat biznes-rejalarini bajarilishi;
- Jamiyat buxgalteriya hujjatlari, moliyaviy hisobotlari va boshqaruv ma'lumotlari to'liqligi va ishonchliligi;
- Jamiyat faoliyatida xavf-xatar paydo bo'lish paytida uni aniqlash, identifikatsiyalash va tahlil qilish;
- Jamiyat faoliyatidagi xavf-xatarlarni rejalashtirish va boshqarish, shu jumladan xavf-xatarni boshqarish bo'yicha o'z vaqtida va mos (adekvat) qarorlarni qabul qilish;
- ijro etuvchi organi, kuzatuv kengashi va nazorat komissiyasining a'zolariga xaq to'lash va tovon to'lashni, shu jumladan uning miqdori bo'yicha to'lovlarning shaffofligi va xaqqoniyligi.

### **III. ICHKI NAZORAT TIZIMI FAOLIYATINING TAMOYILLARI**

3.1. Jamiyatning ichki nazorat tizimi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

3.1.1. uzluksiz faoliyat ko'rsatish – ichki nazorat tizimining doimiy va to'g'ri faoliyat ko'rsatishi Jamiyatga me'yorlardan har qanday chetga chiqishlarni o'z vaqtida aniqlash va ularni kelgusida paydo bo'lishini oldini olish imkoniyatini beradi;

3.1.2. ichki nazorat tizimining barcha qatnashchilari hisobdorligi – xar bir shaxs tomonidan nazorat funksiyalarini bajarish sifati ichki nazorat tizimining boshqa ishtirokchilari tomonidan nazorat qilinadi.

3.1.3. majburiyatlar taqsimoti – Jamiyat nazorat funksiyalarining takrorlanishiga yo'l qo'ymaslikka intiladi va ushbu funksiyalar ishchilar o'rtasida shunday taqsimlanishi lozimki, aynan bir shaxs aktivlar butligini ta'minlash va ularni xatlovdan o'tkazish, operatsiyalarni hisobga olib, muayyan aktivlar operatsiyalarini tasdiqlash bilan bog'liq funksiyalarni birlashtirib olib bormasligi;

3.1.4. operatsiyalarni to'g'ri ma'qullash va tasdiqlash – Jamiyat barcha moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarni vakolatli shaxslar tomonidan ularga tegishli vakolatlari doirasida tasdiqlash tartibini o'rnatishga intiladi.

3.1.5. har kunlik ichki nazoratni amalga oshiruvchi Jamiyat tarkibiy bo'linmasining tuzulmaviy ajralib turishini ta'minlash va uning audit qo'mitasi orqali bevosita Kuzatuv kengashiga funksional hisobotdorligi;

3.1.6. nazorat funksiyalarini to'g'ri bajarayotganligi uchun Jamiyatda ishlayotgan ichki nazoratning barcha sub'ektlari mas'ulligi;

3.1.7. Jamiyatni barcha tarkibiy bo'linmalarining aniq o'zaro hamkorligi asosida ichki nazoratni amalga oshirish;

3.1.8. doimiy rivojlanish va takomillashish – yangi vazifalarni hal qilish, tizimning o‘zini kengaytirish va takomillashtirish zaruriyatini hisobga olgan holda moslashishi mumkin bo‘lgan Jamiyat ichki nazorat tizimini moslashuvchan tarzda sozlash uchun sharoitlarni ta’minlashga intiladi;

3.1.9. og‘ishliklar haqidagi xabarlarni o‘z vaqtida yetkazish – Jamiyatda og‘ishliklarni bartaraf qilish bo‘yicha qarorlarni qabul qilish vakolatiga ega shaxslarga tegishli ma’lumotlarni yetkazish bo‘yicha maksimal qisqa muddatlar belgilangan;

3.1.10. nazorat o‘rnatiladigan Jamiyat faoliyatining muhim sohalarini belgilash – hatto ularning faoliyati samaradorligini o‘lchash («harajatlar – iqtisodiy samara» nisbati) og‘ir bo‘lsada, ichki nazorat tizimi qamrab oladigan strategik yo‘nalishlar ajratiladi.

3.1.11. Ichki nazorat tizimi quyidagi o‘zaro bog‘liq komponentlarni o‘z ichiga oladi:

- nazorat muxiti;
- xavfni baholash jarayoni;
- axborot tizimi, shu jumladan moliyaviy xisobotga tegishli biznes-jarayonlari va axborot almashinuvi;
- nazorat qilish tadbirlari;
- boshqarish vositalarining monitoringi.

#### **IV. ICHKI NAZORAT ORGANLARI**

1.1. Ichki nazorat Jamiyatning kuzatuv kengashi, ichki audit xizmati, taftish komissiyasi, ijro organi, shuningdek, Jamiyatning barcha darajadagi xodimlari tomonidan amalga oshiriladi va belgilangan tartibda ichki nazorat uchun javobgar bo‘ladi.

1.2. Jamiyatda faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘linmalarning tarkibi va malakasiga talablar, funksiyalari, huquq va majburiyatlari, javobgarligi, to‘lanadigan mukofotlarni hisoblash tartibi Jamiyat ichki hujjatlarida nazarda tutilgan.

Ichki nazorat masalalariga to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki bilvosita dahldor boshqa hujjatlar kabi ushbu hujjatlar mazkur Nizomga zid bo‘lmasligi kerak.

1.3. Kuzatuv kengashining funkuyalariga quyidagilar kiradi:

- rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash va muayyan operatsiyalarini hamda ichki nazorat tizimi strategiyalarini ma’qullash;

-Jamiyat boshqaruvi, tashqi va ichki auditorlar, taftish komissiyasining muntazam hisobotlaridagi ma’lumotlarga, boshqa manbalardagi ma’lumotlarga xamda ichki nazoratning barcha tomonlari bo‘yicha o‘z kuzatishlariga shu jumladan moliyaviy, operatsion, qonunchilikga rioya qilish, ichki siyosatlar va tadbirlar nazoratiga asoslangan ichki nazorat tizimi ishonchliligi va samaradorligi

bo'yicha o'tkazilgan taxlil va baholash natijalari to'g'risida har yili Jamiyat aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishida axborot berish;

- ichki nazorat tadbirlarini muntazam ravishda takomillashtirish.

1.4. Jamiyatning va uning alohida bo'linmalari faoliyatini ichki moliyaviy-xo'jalik va huquqiy nazorat funksiyalarini amalga oshirish bo'yicha javobgarlik doimiy faoliyat yurituvchi ichki nazorat organi-Taftish komissiyasiga yuklatiladi, vazifalari va vakolatlari taftish komissiyasi to'g'risidagi nizomda aks ettirilgan.

1.5. Ichki nazorat tadbirlari bajarilishi, ya'ni Jamiyat va uning tarkibiy bo'linmalari amalga oshirayotgan moliyaviy-xo'jalik operatsiyalari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiqligi, shuningdek buxgalteriya va moliyaviy hisobotlarining to'liqligi va haqqoniyligi ustidan muntazam nazoratni amalga oshirish bo'yicha javobgarlik ichki audit xizmatiga yuklatiladi, uning vazifalari va vakolatlari ichki audit xizmati to'g'risidagi nizomda aks ettirilgan, agar Jamiyatda shunday ichki nazorati mavjud bo'lmasa, u holda javobgarlik Jamiyat taftish komissiyasiga yuklatiladi.

4.6. Jamiyatning ichki nazorat sohasidagi kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan siyosatga muvofiq ichki nazorat tizimining ishlashi uchun javobgarlik ijro organining rahbari tomonidan tayinlanadi. Jamiyatning ijro etuvchi organi raxbari ichki nazorat tizimining tartib-qoidalarini amalga oshiradi va uning samarali ishlashini, Jamiyatning barcha tavakkalchiligini kuzatuv kengashiga o'z vaqtida xabardor qilishni, ichki nazorat tizimining sezilarli kamchiliklarini, shuningdek ularni bartaraf etish choralarining rejalari va natijalarini ta'minlaydi.

4.7. Ichki nazorat tizimining to'g'ri ishlashi xodimlarning malakasiga bog'liqdir. Jamiyat kadrlarni tanlash, ishga qabul qilish, o'qitish, tayyorlash va xodimlarni xizmatda yuqori mansabga ko'tarish tizimi ularning yuqori malakasini va ular yuqori odob-axloq standartlarga rioya qilishini ta'minlashga harakat qilmoqda.

4.8. Quyidagi shaxslar ichki audit xizmatida lavozimlarni ichki audit xizmatida lavozimniegallashga yoki Jamiyatning taftish komissiyasining a'zosi bo'lishga haqli emas:

- iqtisodiy jinoyat yoki tartibga qarshi jinoyatlar uchun sudlanganlar;
- Jamiyatning ijroiya organi raxbari yoki a'zolari bo'lgan shaxslar;
- ta'sischilar(aksiyadorlar, ishtirokchilar), ijroiya organi raxbari yoki a'zolari, shuningdek, jamiyat raqobatchisi bo'lgan boshqa yuridik shaxsning xodimi.

Ichki audit xizmati va taftish komissiyasi tarkibiga kiruvchi shaxslar uchun boshqa talablar ularning faoliyatini tartibga soluvchi ichki qoidalar bilan belgilanadi.

## II. ICHKI NAZORAT TADBIRLARI

2.1. Ichki nazorat tadbirlari quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:  
ogoxlantiruvchi – kutilmagan xodisaning ro'y berishiga yo'l qo'ymaslik;  
aniqlashtiruvchi – baxtsiz xodisalarni aniqlash uchun;  
direktivli - kerakli xodisaga xissa qo'shish;  
korrektirlovchi - noxush hodisa yuzaga kelishi oqibatlarini bartaraf etish;  
kompensatsiyalovchi - mavjud boshqarish vositalarining zaif tomonlarini to'ldirish.

2.2. Ichki nazorat tartib-qoidalari jamiyatning ichki xujjatlarida belgilangan qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi.

2.3. Jamiyatdagi ichki nazorat tartiblari qatoriga quyidagilar:

Kelishuv – tegishli vakolatga ega bo'lgan turli bo'linma va boshqaruv darajasidagi xodimlarning hujjatlarini tasdiqlash;

Avtorizatsiya – xodimlar tomonidan jarayonni amalga oshirish uchun ruxsat olish;

Tekshirish – turli manbaalardan olingan ma'lumotlarning to'liqligi, aniqligi, kelishilganligi va to'g'riligini tekshirish, shu jumladan buhgalteriya hisobi, buhgalteriya tizimlari, Jamiyat va uning kontragentlari hisobg' kitoblari ma'lumotlari o'rtasida nomuvofiqliklar mavjud emasligini tekshirish.

Arifmetik nazorat – hisob – kitoblarning arifmetik to'g'riligini, shu jumladan moliyaviy, buxgalteriya va boshqa hujjatlarini yig'ish summasini hisoblash;

Ziddiyat tahlili – belgilangan maqsadlarga erishish darajasini baholash va amaldagi ish ko'rsatkichlarini rejali ko'rsatkichlar, prognozlar, avvalgi davrdagi ma'lumotlar, raqobatchilar faoliyatining natijalari bilan taqqoslash asosida rejalar bajarilishi;

Aktivlarning xavfsizligini jismoniy nazorat qilish – aktivlarga, binolarga, hujjatlarga jismoniy shaxslarning kirishini cheklash, aktivlarni saqlash joylarini to'g'ri jixozlash, moddiy javobgarlik shartnomalarini tuzish;

Inventarizatsiya – buhgalteriya hisobi va Jamiyat aktivlarini saqlab qolish ishonchliligini ta'minlash maqsadida aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy mavjudligi va sifat ko'rsatkichlarini identifikatsiyalash va tavsiflash;

Axborot texnologiyalarning (kompyuter boshqaruvlari ) umumiy va ixtisoslashtirilgan nazorat prodseduralari – foydalanish nazorati, ma'lumotlar yaxlitligi, axborot tizimidagi o'zgartirishlar.

2.4. Muayyan nazorat tartibining mazmuni boshqaruv darajasiga va funksional yo'nalishga bog'liqdir, tarkibiy bo'linmalar tomonidan Jamiyat maqsadlari va tarkibiy bo'linma vazifalariga muvofiq ishlab chiqiladi va Jamiyatning ichki hujjatlarida belgilanadi.

### **III. ICHKI NAZORAT ORGANI ISHINING MONITORING MEXANIZMI**

6.1. Monitoring maqsadi Jamiyatning ichki nazorat tizimining samaradorligini, shu jumladan uning maqsad va vazifalarini bajarish imkoniyatini baholash, shuningdek tizimdagi kamchiliklarning axamiyatligini aniqlashdan iborat.

6.2. Jamiyatning ichki nazorat organlari xar chorakda o'zlarining funksional majburiyatlarga muvofiq o'tkazilgan tekshiruvlar natijalari bo'yicha Jamiyat kuzatuv kengashiga hisobot beradi.

6.3. Jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan xar yili tasdiqlangan rejaga muvofiq belgilangan yo'nalishlarda tegishli tekshiruvlarni ichki audit(xar chorakda va hisobot yilining natijalariga ko'ra) amalga oshiradi.

Ichki auditni o'tkazish va uning natijalari bo'yicha jamlanma hisobot tuzish uchun talablar "Aksiyadorlik jamiyatining ichki audit xizmati to'g'risida"gi Nizomda aks ettirilgan.

6.4. Jamiyatning moliyaviy – xo'jalik faoliyatini tekshirish natijalari bo'yicha Jamiyat taftish komissiyasi yillik xulosa beradi, ushbu xulosa Jamiyat aksiyadorlar umumiy yig'ilishida eshitiladi.

Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishida qabul qilinishi kutilayotgan xulosaning tuzilishiga qo'yiladigan talablar "«O'zbekgeofizika» aksiyadorlik jamiyatining taftish komissiyasi to'g'risida" gi Nizomda belgilangan.

Bundan tashqari, taftish komissiyasi har chorakda jamiyat kuzatuv kengashi majlisiga afillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar yoki Jamiyat bilan tuzilgan yirik bitimlarni, shuningdek, bunday bitimlarni bajarish uchun qonun hujjatlari va ichki hujjatlarining talablarini bajarish bo'yicha xulosa beradi.

6.5. Tashqi auditor tizimdagi ichki nazoratni tekshirayotganda mavjud ichki nazorat tizimimni tekshiradi, nazorat mexanizmlarining muvofiqligini baholaydi, ichki nazorat tizimining samaradorligini tekshiradi. Ichki nazorat tartiblarini o'rganish va baholashda, iqtisodiy bitimlarni tasdiqlashga, majburiyatlarni taqsimlashga, hujjatlarni rasmiylashtirishga va nazorat tartibotini qayd etib borishga aloqida e'tibor qaratadi.

6.6. Mustaqil professional tashkilotlarni Jamiyatning ichki nazorat tizimining samaradorligini baholashga jalb qilish Jamiyat kuzatuv kengashining qarori bilan tanlov asosida amalga oshiriladi.

6.7. Jamiyatning kuzatuv kengashi o'zining yillik hisobotida aksiyadorlarga ichki nazorat tizimining ishonchliligi va samaradorligini tahlili va baholash natijalari to'g'risida ma'lumot beradi.

Kuzatuv kengashi tomonidan ichki nazorat tizimini baholashning ichki va tashqi audit ma'lumotlari, taftish komissiyasi, boshqa manbaalardan olingan

ma'lumotlar va ichki nazoratning barcha yo'nalishlari, shu jumladan: moliyaviy nazorat, jarayon ustidan nazorat, tartib-qoidalarining bajarilishi ustidan nazorat, ichki siyosat va tartib ustidan nazorat bo'yicha o'z kuzatuvlari ma'lumotlari bilan yo'lga qo'yiladi.

6.8. Ichki nazoratning monitoring tizimi kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan.

## **VII. YAKUNIY QOIDALAR**

7.1. Mazkur Nizom, Jamiyatning xodimlari, Boshqaruv va nazorat organlari a'zolari tomonidan bajarilishi majburiydir.

7.2. Mazkur Nizom, shuningdek unga kiritilgan o'zgartirilishlar aksiyadolar umumiy yig'ilishi tomonidan oddiy ko'pchilik ovozi bilan tasdiqlanadi.

7.3. Mazkur Nizom, shuningdek unga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar Jamiyatning internetdagi korporativ veb-saytida Jamiyatning boshqaruv organi majlisida tegishli qarorlar qabul qilingan holda, bayonnoma imzolangandan so'ng o'n kun ichida, e'lon qilinadi.

**Mazkur Nizom rus tilidan o'zbek tiliga norasmiy tarjima qilingan.**